

MUHAMMAD YUSUF IJODIDA TAKROR SAN'ATI

Mamatraimova Xadicha

Termiz davlati universiteti,

O'zbek filologiyasi fakulteti 1-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Sultonqulova Feruza

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Yusuf she'rlaridagi lirik qahramon tabiatini yoritishda takror san'atining ahamiyati o'rganilgan. Shoiring she'rlari asosida anaforalarning vazifasi aniqlangan va she'rlari badiiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: lirika, takror (anafora), leksik takror, lirik qahramon, ruhiyat, kechinma, metafora

O'zbek adabiyoti rivojiga munosib hissa qo'shgan shoir Muhammad Yusuf o'z ijodi orqali she'riyatimizga yangicha ruh olib kirgan ijodkor hisoblanadi. U she'rlaridanoq xalqonalik, ilk ijod namunalaridagi o'z uslubi va o'ziga xos ovozi bilan she'riyatimizda alohida e'tirofga sazovor bo'ldi. Adabiyotshunosligimizda shoir she'riyatining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari yuzasidan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Shoiring badiiy mahorati shundaki, lirik qahramon tabiatini ochib berishda obrazlilikni ta'minlavchi she'riy san'atlardan unumli foydalanadi. Xususan, badiiy takrorlar shoir she'rlarining ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi. She'riy nutqdagi takror she'r tuzilishi mezonlarini belgilash imkonini beradigan vositalardan biridir. Atoulloh Husayniyning "Badoyi'u-s-sanoyi" asarida ma'naviy go'zal san'at sifatida "takrir" ("takror") haqida qimmatli fikrlar bayon qilingan. Takrorni ikki turga ajratgan olim yozadi: "Birinchi turli uldirkim, lafz aynan takrorlanur... Ikkinchi turli uldurkim, lafz emas, ma'no takrorlanur va ma'noning takrori umumiysidin so'ng xususiyning zikridin iborat bo'lmos'humi mumkin". [1, 30]

Anglashiladiki, takror ma'noni kuchaytirish, ta'kidlash, estetik ta'sirchanlikni oshirish, fikr qamrovini kengaytirish, shoir maqsadini konkretlashtirish singari maqsadlarga xizmat qiladi.

Binobarin, badiiy takrorlar poetik nutqning ifodaviyligini oshiradi. She'rning musiqiyligi, ritmi, vazni, band va qofiya san'ati yuzaga chiqishida ham kitobxon qalbiga kuchli hissiy ta'sir etishida ham badiiy takrorlar muhim ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olim T.Boboyev badiiy takrorlarni fonetik, leksik, morfologik, sintaktik takrorlar tarzida muayyan tizimda tasnif qilib o'rganish mumkin deb hisoblaydi. U anaforani leksik takrorlar sinfiga kiritadi. [2,431]

Shoир Muhammad Yusufning "Maktub" she'rida so'z takrori uchraydi.

Sevgilim,
Sevgilim,
Ogriydi dilim.

Jonim og‘riyverar sizni o‘ylasam.
Gulday yuzingizni silar endi kim,
Meni eslarmisiz-yo‘qmi o‘shal dam! [3;7].

Muhabbat tuyg`usi bilan bedor oshiq holati tasvirlangan mazkur she`rda shoir iztirobli sevgi, topish va yo`qotish, armon kabi hislarni tasvirlaydi. She`rda “Sevgilim” so‘zining takrori natijasida ifodaning jonli va ta’sirchan chiqishiga erishilgan. So‘z takrori muyyan darajada lirik qahramon kechinmalar, муайян нолат-кайфиятини to‘liq ifoda ettirishga xizmat qilgan.

M.Yusuf ijodida leksik anaforalar lirik qahramon tabiatini, inson ruhiyati manzaralarini shoirona chizishda muhim ahamiyat kasb etadi. Olamda inson borki, uning eng oliv tuyg`usi - muhabbat ham bor. Shunday betakror tuyg`uni ne-ne buyuk so‘z san’atkorlari tarannum etganlariga qaramay, hali hamon hech bir ijodkor uning ta’rifini berolgan emas. Quyidagi parchada misralardagi takrorlar ta’sircanlikni oshirishga xizmat qilgan:

Ket deb aytolmasam netaman,
Kel deb aytolmasam netaman.
Seni osmonimga olib ketaman,
Seni osmonimga olib ketaman.[3;40]

M.Yusuf chindan quyma va betakror satrlar bita oladigan betakror iste’dod sohibidir. “Termalar” she`rida ham ijodkorning bu fazilati to‘liq namoyon bo‘ladi. Xalq qo‘shiqlariga mos badiiyat va tuzilishdan iborat[4], bu she`rda, metafora, tazod, maqol va iboralar bilan bir qatorda so‘z takrorlari qo`llanilgan.

Yomon ko‘z tosh yorar der,
Yomon do‘sst bosh yorar der.
Yomon erkak to‘y buzar,
Yomon qiz uy buzar der,
Yomon bo‘lsa yo‘ldoshing,
Bor baxting ham tuzar der.[3;73]

xalq termalari asosida yozilgan ushbu she`rda yomon sifatlashi (epitet) 5 tarta misralar boshida takrorlanib, ifodaning ta’sirchanligini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, badiiy san’atlarning, xususan, anaforalarning o‘zbek she’riyatida, qolaversa, Muhammad Yusuf ijodida lirik qahramon tabiatini yorqin tasvirlashda, ifodaning jonli va ta’sirchanligini oshirishda alohida o‘rni bor. Shoir maqsadini amalga oshirish, she’rning musiqiyligi va ritmini ta’minlashda takrorlar inson ruhiyati bilan bog‘liq hissiy jarayonni ifodalash vazifasini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Хусайнин А. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Фафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат, 1981. – 172 б.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Т.: “О‘збекистон”, 2002.
3. Мухаммад Юсуф. Осмонимга олиб кетаман: Шеърлар,—Т.: “Ёзувч”, 1997,
4. Sultonqulova F. Usmon Azim ijodida xalq qo‘sishlari// “Modern science and research” Xalqaro ilmiy jurnali, Volume 3, Issue 4, 2024.11.04. <http://modernscience.uz/en/post/detail/3102/>
5. Султонкуловой, Феруза Бобоназаровна. "УСМОН АЗИМ ШЕЪРИЯТИДА КУЗ МЕТАФОРASI." МЕЖДУНАРОДНЫЙ ЖУРНАЛ ИСКУССТВО СЛОВА. 4.3 (2021).
<https://tadqiqot.uz/index.php/art/article/download/4100/3892/8233>
6. Sultonqulova F. An'anaviy tosh obrazining talqinlari xususida./ Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari./ ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES. 3/(S)(4-jild). 2024. <https://scienceproblems.uz/index.php/journal/article/view/1856>
7. Sultonqulova F. Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ruhiy-psixologik holat ifodasida detalning o‘rni// “Экономика и социум”. Россия.№6(121). – 2024. <https://cyberleninka.ru/article/n/>
8. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 04 (84), 537-539. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>.
9. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. *ISJ Theoretical & Applied Science*, 02 (94), 350-353. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS>